

Qizilqum kashf etilmoqda: Geobotanik olimlar cho'l yaylovlarini raqamli xaritaga ko'chirmoqda

FA Botanika instituti Geobotanika laboratoriyasi ilmiy xodimlari tomonidan Navoiy va Buxoro viloyatlarining cho'l hududlarida "Raqamli tabiat" davlat dasturi muhim dala tadqiqotlari amalga oshirildi.

Ma'lumotlar, Qizilqum cho'li hududida tarqalgan yaylovlar holatini o'rganish, ularning fitosenotik tarkibi, boniteti, biologik resurslari va degradatsiya darajasini aniqlash, shuningdek, raqamli yaylovlar kadastrini, xaritasini yaratish maqsadida to'plandi.





2025-yilgi tadqiqot rejasiga binoan, Navoiy, Buxoro viloyatlari cho'l hududlari tarqalgan saksovulzor, shuvoqzor, quyrovuqzor, juzg'unzor, tereskenzor, efemerzor yaylovlari holati bo'yicha Kuljuktav, Shuruq, Chengeldi, Karakatta, Balakarak, Nurmaxan, Ayakkuduk, Ayakagitma, Ayakgujumdi hududlariga belgilangan aniq marshrut asosida dala tadqiqotlari olib borildi.

Ekspeditsiya davomida yaylovlarning fitosenotik tarkibi aniqlandi, Yaylovlarning yozgi yer ustki hosildorligini aniqlash uchun dala ma'lumotlari yig'ildi. Tadqiqot hududlaridagi yaylov xillarini xaritalash uchun tabiiy chegaralari koordinatalari belgilandi. Yaylov xillarining joylashgan joyi, ularning maydoni, bonitet toifasi, suv bilan ta'minlangani, tuproq qatlami xususiyati, loyiha bo'yicha qoplanish darajalari, o'simliklarning landshaft turlari, ularning joylashuvi, zichligi, zaharli va begona o'simliklarning mavjudligi, ozuqa massasining hosildorligi, ozuqalarning yalpi zaxirasi, ozuqalarning oziq bo'ladigan qiymati, tavsiya etiladigan mavsumiy foydalanish, amalda mavsumiy foydalanish, yaylovlarning payhonlanish darajasi, degradatsiyasi, har bir yaylov xili bo'yicha o'simliklar turlarining mo'lligi ko'rsatilgan ro'yxati kabi birlamchi kadastr ma'lumotlari to'plandi.





Fitosenozlarda terofit, neofit va invaziv turlar nisbatini, gemoroblik darajalarini hamda fitosenozlarda indikator turlar tolerantligi aniqlandi. Tadqiqot hududlaridagi antropogen ta'siri ostidagi o'simlik jamoalari tahlil qilindi.

Tadqiqotlar davomida xalq tabobatida va farmatsevtikada muhim bo'lgan istiqbolli xom-ashyobop o'simliklar (*Ziziphora tenuior*, *Alhagi pseudalhagi* *Anabasis salsa*, *Peganum harmala*) ning tabiiy zahiralari ham baholandi. Ularning tarqalish areallari, biologik va eksplutatsion zahiralari xaritaga kiritildi.

Yig'ilgan dala ma'lumotlari nafaqat ilmiy ahamiyatga ega, balki ular yaylovlarni samarali boshqarish, degradatsiyaga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish, qurg'oqchil hududlar resurslaridan barqaror foydalanish hamda xaritalarini ishlab chiqishda uchun muhim asos bo'ladi.